SCIENCE CONNECTS PEOPLE

INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL OF

2026 / No. 1(2)

Contemporary Pedagogical and Philological Research

SUN’IY INTELLEKTNING TA’LIMGA TA’SIRI

Ahmadova Aziza Avaz qizi

Samarqand davlat chet tillar instituti,

Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) yo‘nalishi, 2-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada sun’iy intellektning zamonaviy va oliy ta’lim tizimidagi ta’siri chuqur tahlil qilinadi. Xususiylashtirilgan ta’lim, onlayn baholash tizimlari va o‘qitish usullarining ijobiy va salbiy tomonlari ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, onlayn baholash tizimlari, xususiylashtirilgan ta’lim.

Аннотация. В данной статье проводится глубокий анализ влияния искусственного интеллекта на современную систему и систему высшего образования. Раскрываются положительные и отрицательные стороны персонализированного обучения, онлайн-систем оценивания и методов преподавания.

Ключевые слова: искусственный интеллект, онлайн-системы оценивания, персонализированное обучение.

Abstract. This article provides an in-depth analysis of the impact of artificial intelligence on modern and higher education systems. It highlights the advantages and disadvantages of personalized learning, online assessment systems, and teaching methods.

Key words: artificial intelligence, online assessment systems, personalized learning.

KIRISH

Oxirgi yillarda sun’iy intellekt texnologiyalari har bir sohada, jumladan, ta’lim sohasida ham keng qo‘llanilmoqda. Bu usul nafaqat o‘qitish metodikasini o‘zgartirib, balki ta’lim jarayonini samarali, interaktiv va qiziqarli qilishga yordam beryapti. Sun’iy intellekt yordamida o‘quv tizimi xususiylashtirilmoqda, o‘quvchi va talabalarning

ehtiyojlaridan kelib chiqib, turli xil o‘qitish usullari ko‘rib chiqilmoqda. O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabatlarni kuchaytirishga yordam beradi. Bundan tashqari, o‘qituvchilar pedagogik mahoratlarini rivojlantirish va har bir o‘quvchida qanday xarakter, qobiliyatlari borligini aniqlash imkonini yaratadi. Sun’iy intellekt bilimni baholash tizimidagi ishlarni ancha osonlashtiradi. Onlayn baholash tizimlari o‘qituvchilarga o‘quvchilarning vazifasini tez va samarali tekshirib beradi. Buning natijasida ustozlar o‘quvchilarning xatolarini to‘liq tahlil qilib berishlari uchun vaqt ajratishadi. Virtual yordamchilar va chatbotlar xohlagan vaqtingizda istagan savolingizga javob bera oladi. Ayniqsa, ish yoki boshqa mas’uliyat bilan band bo‘lganlar uchun bu qulay imkoniyat bo‘la oladi va an’anaviy ta’limga ehtiyoji bo‘lganlar uchun juda ham muhimdir. Shu bilan birga, onlayn baholash tizimi atrof-muhitga katta foyda olib kelmoqda. Avvalgi vaqtlarda o‘quvchilarning baholari reyting daftarlariga qo‘yilgan bo‘lsa, hozirda ularning ballari to‘g‘ridan-to‘g‘ri onlayn qo‘yib borilmoqda. Daraxtlarning kamaymasligiga, atrof-muhitning saqlanib qolishiga yordam bermoqda.

SUN’IY INTELLEKTNING TA’LIM SIFATIGA SALBIY TA’SIRI

"Har yaxshining bir yomoni" bo‘lganidek, sun’iy intellektning ta’limga ta’siri bir qancha muammolarni paydo qilishi mumkin: O‘qituvchilarning o‘rnini egallashi ish joyining kamayishiga olib keladi. Talabalarning sun’iy intellektga ruju qo‘yishi — u orqali bilim olgani bilan, uning xotirasini va fikrlash doirasini qisqartirishi mumkin. Maxfiylik va xavfsizlik: talabalar sun’iy intellektdan foydalanishlari uchun o‘zlarining shaxsiy ma’lumotlarini uchinchi shaxslarning qo‘liga tushirib qo‘yishlari mumkin.

XULOSA

Oliy ta’lim tizimida sun’iy intellekt texnologiyalarining paydo bo‘lishi, o‘quv jarayonlarining shaxsiylashtirilishi yoki ta’lim jarayonining qulay, interaktiv va samarali bo‘lishiga muhim omil sanaladi. Biroq bu texnologiyalardan to‘g‘ri foydalanish tizimini ham yo‘lga qo‘yish lozim. Shu boisdan, sun’iy intellektni bir

SCIENCE CONNECTS PEOPLE

yordamchi sifatida qabul qilib, insoniy ta’lim jarayonini ham izdan chiqarmaslik lozim. Bundan tashqari, sun’iy intellekt yordamida masofaviy ta’lim tizimi yanada rivojlanmoqda. Talabalar dunyoning istalgan nuqtasidan turib bilim olish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Bu esa, ayniqsa, chekka hududlarda yashovchi yoshlar uchun katta imkoniyat yaratadi. Sun’iy intellekt asosidagi platformalar o‘quv materiallarini avtomatik tarzda tahlil qilib, foydalanuvchining bilim darajasiga mos ravishda yangi topshiriqlarni taqdim etadi. Bu esa o‘quv jarayonini yanada samarali va tizimli tashkil etishga yordam beradi. Shuningdek, sun’iy intellekt o‘qituvchilarga ham katta yengillik yaratadi. Ular dars rejalari tuzishda, test savollarini shakllantirishda va o‘quvchilarning bilim darajasini aniqlashda sun’iy intellektdan samarali foydalanishlari mumkin. Natijada o‘qituvchi o‘z vaqtini ko‘proq o‘quvchilar bilan ishlashga, ularning muammolarini tushunishga va individual yondashuvni kuchaytirishga sarflaydi. Kelajakda sun’iy intellekt ta’lim tizimining ajralmas qismiga aylanishi kutilmoqda. Shu sababli bugungi kunda yoshlar nafaqat oddiy bilimlarni, balki sun’iy intellekt bilan ishlash ko‘nikmalarini ham egallashlari zarur. Bu esa ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatida muvaffaqiyat qozonishlariga xizmat qiladi. Yakuniy qilib aytganda, sun’iy intellekt ta’lim tizimida katta imkoniyatlar yaratmoqda. Uni to‘g‘ri va ongli ravishda qo‘llash orqali ta’lim sifatini yanada oshirish, zamonaviy va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Umaralievich, K. U. *Spiritual Education of Students of Pedagogical Universities on the Basis of Cultural and Humanistic Approach.*

2. Suyumov, J., Madaliyeva, G., & Xakimova, K. (2021). Imitation Modeling Technologies in Higher Educational Process. *Теория и практика современной науки*, (5).

3. Suyumov, J. Y. (2021). Kompyuter imitatsion modellari asosida faol o‘qitish texnologiyasining nazariy asoslari. *Scientific Progress*, 2(3).

4. Suyumov, J. Y. (2021). Theoretical Basis of Active Teaching Technology on the Basis of Computer Imitation Models. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(7).

5. Raximov, D. S. (2021). Diversifikatsiya hududlar sanoatni muvozanatli strategik rivojlantirish yo‘nalishlari. *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences.*